




MURABBIY UCHUN ESLATMA



Eslab qolish muhim!!!

- **Bolalar va o‘smirlar o‘zlari guvoh bo‘lgan xatti-harakatlarni takrorlaydilar.**
- **Ular uchun yorqin namunalar - ular hurmat qiladigan insonlar hisoblanadi.**
- **Murabbiyning kuchli antidoping pozitsiyasi - kuchli to‘xtatuvchi omildir**
- **Sportda dopingdan foydalanishni oldini olish uchun murabbiy dopingdan xoli muhit yaratishi kerak.**
- **Murabbiy ayniqsa sportchi dopingga eng ko‘p moyil bo‘lgan vaziyatlarga e‘tiborli bo‘lishi kerak.**



Sportchining halol o‘yinini qo‘llab-quvvatlash uchun murabbiy quyidagilarni bajarishi kerak:

✓ **antidoping qoidalarini bilish va ularga amal qilish.**

✓ **antidoping dasturlarini amalga oshirishda hamkorlik qilish**

✓ **dopingga nisbatan murosasizlik muhitini shakllantirish maqsadida sportchiga o‘z ta’sirini o‘tkazish.**

Muvaffaqiyatga qanday erishish mumkin ?



- ✓ Har qanday narxda g'alaba qozonishdan ko'ra tirishqoq mehnat yuqori qadrlanadigan muhitni rivojlantirishga ko'maklashish
- ✓ Sportchilarda halol, munosib o'yin qadriyatlarini rivojlantirish va mustahkamlashga intilish
- ✓ Sportchilarga shaxsiy javobgarlik tamoyili ma'lum ekanligiga ishonch hosil qiling.
- ✓ Antidoping qoidabuzarliklarining 11 turini bilish
- ✓ Doping nazorati jarayonida sportchining vakili sifatida ishtirok eta olish
- ✓ BFQlarni iste'mol qilish natijasida yuzaga keladigan xavflarni bilish


Sportchi xodimlariga taalluqli dopingga qarshi qoidabuzarlik turlari:

- doping nazoratining har qanday tarkibiy qismini soxtalashtirish yoki soxtalashtirishga urinish;
- taqiqlangan substansiya yoki Taqiqlangan usuldan foydalanish;
- har qanday taqiqlangan modda yoki taqiqlangan usulni tarqatish yoki tarqatishga urinish;
- har qanday taqiqlangan substansiya yoki taqiqlangan usulni tayinlash yoki tayinlashga urinish;
- ishtirokchilik;
- taqiqlangan hamkorlik;
- vakolatli organlarga axborot taqdim etilishiga to'sqinlik qilish yoki uni ta'qib qilishga qaratilgan harakatlar.

**Unutmang! Har qanday sportchi istalgan
vaqtda doping-nazorat muolajasidan
o'tishi mumkin.**

Murabbiy sifatida siz sportchingiz hayotidagi eng muhim odamlardan biri hisoblanasiz.

Sportchingiz doping nazoratidan o'tish uchun tanlanganida uning vakili sifatida qatnashishingiz mumkinligi sababli, siz namuna topshirish jarayonini, shuningdek, sportchingizning huquq va majburiyatlarini tushunishingiz zarur..



SPORT XODIMLARINING MAJBURIYATLARI

- ✚ Kodeks qoidalarini bilish va ularga rioya qilish
- ✚ Doping nazorati inspektori bilan hamkorlik olib borish
- ✚ Sportchining dopingga nisbatan murosasizligini rivojlantirishga ko'maklashadigan ishonchga ta'sir o'tkazish
- ✚ Har qanday narx evaziga g'alaba qozonish emas, balki o'z-o'zini takomillashtirish madaniyatini qo'llab-quvvatlaydigan murabbiylik muhitini yaratish
- ✚ Siz mashq qildirayotgan barcha sportchilar va siz bilan ishlaydigan boshqa sportchi xodimlarida ijobiy qadriyatlar va e'tiqodlarni rivojlantirishga ko'maklashish
- ✚ Sportchilarning qat'iy javobgarlik tamoyili haqida bilishini ta'minlash
- ✚ Sinovlar paytida sportchining vakili sifatida ishtirok etishga tayyor turish
- ✚ Sportchilarga maslahat berishdan oldin, javobga ishonchingiz komil bo'lmasa, savollar berish
- ✚ Sportchilarning biologik faol qo'shimchalardan foydalanish bilan bog'liq xatarlarini bilish
- ✚ Sport sohasi yaxlitligini himoya qilish, har qanday shubhali hodisalar to'g'risida antidoping tashkilotiga xabar berish

SPORT XODIMLARINING JAVOBGARLIGI

Sport xodimlari:

har qanday murabbiy, instruktor, menejer, agent, jamoa xodimlari, rasmiy shaxs, tibbiy, paramedik xodimlar, ota-ona yoki sportchi bilan birga ishlaydigan, unga tibbiy yordam ko'rsatadigan yoki sportchiga sport musobaqalariga tayyorgarlik ko'rish va ularda ishtirok etishda yordam beradigan boshqa shaxslar.

- ✓ Chetlashtirish
- ✓ Sport sohasidagi diskvalifikatsiya ✓ Mehnat shartnomasini bekor qilish va boshqalar.

ANTIDOPING QOIDALARINI BUZGANLIK UCHUN SANKSIYALAR

Soxtalashtirish yoki soxtalashtirishga urinish

2 йилдан 4 йилгача

Taqiqlangan modda yoki usulga egalik qilish

2 йилдан 4 йилгача

Tarqatish yoki tarqatishga urinish

4 йилгача

Tavsiya qilish yoki tayinlanishga urinish

4 йилгача

Hamkorlik

2 йилдан 4 йилгача

Taqiqlangan hamkorlik

4 йилгача

Sportchilik ruhiyatingizni mustahkamlang:

- ❖ **Men halol mashq qilaman**
- ❖ **O'yinchilarga hurmat ko'rsataman**
- ❖ **O'yin natijasini qabul qilaman**

Ўзбекистон Миллий
антидопинг агентлиги
(UzNADA)

